



TARIX FANLARINI O'QITISHDA COURSERA VA EDX PLATFORMALARIDAN FOYDALANISH TARTIBI, USULLARI, QOIDALARI VA TALABLARI

Odilova Mohichehra O'zMU

Tarix fakulteti 1-kurs magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada tarix fanini o'qitishda ommaviy ochiq onlayn kurslar va platformalarning muhim ahamiyatga egaligi Coursera va EdX platformalari misolida yoritilgan. Bu kurslarning tarixni mustaqil o'rganishdagi ahamiyatidan tashqari oliy ta'lim muassasalarida professor-o'qituvchilarga yordamchi vosita sifatidagi afzalliklarini ham ochib berishga qaratilgan.

Kalit so'zlar: onlayn kurslar, platformalar, texnologiyalar, MOOC, Coursera, EdX,

Bugungi texnika asrida sifatli ta'limni chekka hududlargacha yetkazishda yangi texnologiyalar va onlayn platformalar keng qo'llanilayotgani hech kimga sir emas. Jumladan, Massive Online Open Courses (MOOCs) — ya'ni ommaviy ochiq onlayn kurslar, ta'limni keng jamoatchilik uchun bepul taqdim etish g'oyasidan kelib chiqqan bo'lib, ular juda katta miqyosdagi ochiq ro'yxatdan o'tish imkoniyatiga ega onlayn kurslar orqali amalga oshiriladi. Coursera va EdX bugungi kunda bu kabi onlayn kurslarni o'zida jamlagan mashhur onlayn platformalardan hisoblanadi.

Tarix fanini oliy ta'lim muassasalarida raqamli texnologiyalar, onlayn platformalar orqali o'qitish dolzarb masalaga aylanganligi va bu orqali o'qitish va o'rganishni samaradorligini yanada oshishini Moskva shahar universitetining Milliy tarix kafedrasida amalga oshirilgan tajriba isbotlaydi. Tajribada “Tarix” (1–4-bosqichda tahsil olayotgan 124 nafar talaba) va “Pedagogik ta'lim” (“Tarix va xorijiy til”, “Tarix va ijtimoiy fanlar” yo'nalishlari bo'yicha 1–5-bosqichda o'qiyotgan 399 nafar talaba) yo'nalishlarida tahsil olayotgan jami 623 nafar talaba ishtirok etgan. Shuningdek, so'rovnomada ushbu universitetning 29 nafar professor-o'qituvchisi



qatnashgan. Tadqiqot 5 bosqichda olib borilgan bo'lib, birinchi bosqichda universitetda tarix fanini o'qitishda raqamli texnologiyalardan qanchalik keng qo'llanilishi haqida savollar berilgan. Ikkinchi bosqichda texnologiyalardan keng foydalanishga qaratilgan zamonaviy dunyo tarixi mavzusida 1 oylik maxsus o'quv dasturi ishlab chiqiladi va **matn, audio, video va grafik materiallar** yordamida yuqori darajadagi vizuallashtirish ta'minlanadi. Keyingi bosqichda **Moodle platformasida** o'qituvchilar va talabalar Google akkaunt orqali tizimga kirgan va ularga elektron pochta orqali taklifnoma va kirish kodi yuborilgan. Platformada o'quv dasturi, materiallar, shuningdek, zarur dasturlarni yuklab olish yoki raqamli texnologiyalar bilan tanishish uchun havolalar joylashtirilgan. **To'rtinchi bosqichda** dastur samaradorligini aniqlash uchun qayta so'rov o'tkazilgan va so'nggi bosqichda talabalarning akademik natijalariga ushbu dasturning ta'siri tekshirilgan. Natijalarga ko'ra, **talabalarning 85%** raqamli texnologiyalardan foydalanish motivatsiyasiga ijobiy ta'sir qilganini bildirgan, 10% javob berishda qiynalgan va 5% raqamli vositalar motivatsiyaga ta'sir qilmasligini aytgan va **talabalarning deyarli hammasi (95%)** o'z ta'lim jarayonida raqamli texnologiyalarni joriy etishni qo'llab-quvvatlagan. **O'qituvchilarning 85%** tarixni raqamli vositalar orqali o'qitish tizimi samarali bo'lishini ta'kidlagan, **65%** esa raqamli ta'limning talabalar ijodkorligiga ijobiy ta'sir ko'rsatishiga ishonch bildirgan. Shuningdek, bir oylik dasturdan so'ng raqamli vositalardan foydalanishda texnologik kompetensiya 62% dan 72% ga, ijodkorlik 65%-75%, tanqidiy fikrlash 60%-71%, strategik fikrlash 55%-65%, amaliy ko'nikmalar 78%-88% ga oshgan.¹

MOOClarning rivojlanishi 2008 yilda boshlangan va 2011 yilda Stanford universitetining ikki professori MOOClarni taqdim etish uchun onlayn platforma yaratishni boshladi va ular Coursera nomli onlayn platformani tashkil etdilar. Coursera platformasining muvaffaqiyati MOOClarni taklif qiluvchi boshqa onlayn platformalarning paydo bo'lishiga sabab bo'ldi. Bir yil o'tib, Harvard va MIT tomonidan shunga o'xshash onlayn platforma, edX, tashkil etildi. Coursera – bu

¹ O. Malysheva, E. Tokareva, L. Orchakova, Y. Smirnova. The effect of online learning in modern history education. Heliyon 8, e09965. 2022



onlayn Amerika platformasi bo'lib, onlayn kurslar, ixtisoslashuvlar, sertifikatlar va darajalarni taklif qiladi. 2012 yilda Stanford universiteti professorlaridan Andrew Ng va Daphne Koller tomonidan tashkil etilgan Coursera hozirda dunyo bo'ylab **200 dan ortiq yetakchi universitetlar va kompaniyalar** bilan hamkorlik qiladi. Coursera bir nechta turdagi elektron ta'lim kurslarini taklif qiladi: **qisqa ma'ruza** (bepul, 2 soatgacha), **kurslar** (bepul; sertifikat talab qilinsa, to'lanadi), **ixtisoslashgan** (to'lov asosida, bir nechta kurslar va loyihalarni o'z ichiga oladi), **sertifikat beradigan** (to'lov asosida, universitet yoki ta'lim kompaniyasi tomonidan beriladi), **magistrlik sertifikati** (to'lov asosida, magistratura dasturlarining ma'lum modullarini o'z ichiga oladi; universitet tomonidan beriladi), **daraja** (to'lov asosida, universitet tomonidan beriladi va an'anaviy o'qishga tenglashtiriladi). EdX onlayn platformasi 2012 yilda Harvard universiteti va MIT tomonidan tashkil etilgan. edX – global notijorat tashkilot. EdX bir nechta turdagi elektron ta'limni taklif qiladi: **kurslar** (qisqa kurslar bepul, kurslar seriyasi to'lov asosida), **professional kurslar** (to'lov asosida; tanlangan sohada sertifikat bilimlarni mustahkamlash va yangi rivojlanishlarni o'rganishga xizmat qiladi), **pre-daraja kurslari** (magistratura dasturining bir qismi; ikki tur: *MicroBachelors dasturlari* va *microMasters dasturlari*), **daraja kurslari** (magistratura; o'quv dasturi va daraja universitetdagi an'anaviy dastur bilan bir xil).²

Quyidagi jadvalda bu ikki platformani taqqoslaymiz:

Platforma	Coursera	EdX
Kurs narxlari	Bepul tinglovchi sifatida qatnashish(sertifikat 30-100\$)	Bepul tinglash, pulli/sertifikatli 500-1500\$
Til	Ko'p tili(subtitr bilan)	Asosan ingliz tili(har xil subtitr)

² Anja Likovič, Katarina Rojko. E-learning and a case study of Coursera and EdX online platforms. RSC 14(1). 2022. 94-120p.



O'rganish materiallari	Xilma xil	O'rtacha
Qiyinlik darajalari	4 bosqichli: boshlang'ich, o'rta, yuqori, aralash	3 bosqichli: boshlang'ich, o'rta, yuqori

Umuman olganda, Coursera va EdX platformalari tuzilishi, undan foydalanish tartibi juda bir-biriga o'xshaydi. Masalan, har ikki platformaga kirgandan so'ng ta'lim oluvchi o'zini darajasiga, hohishiga qarab kursni tanlaydi. Ikki platformada ham filtr tizimi bizga mos bo'lgan kursni tezroq topishimizga yordam beradi. Bu tizimda biz o'rganmoqchi bo'lgan fanni, bizga qulay tilni, o'z bilim darajamizni, qancha vaqtda o'rganmoqchi ekanligimizni va xatto qaysi universitetdagi qaysi professor dars o'tishini ham tanlay olamiz. Bu platformalarda judayam ko'p videodarsliklar bo'lib, hohlagan vaqtda hohlagan o'zimiz qiziqqan mavzuni o'rgana olamiz. Masalan, Courserada bugungi kunda 140 milliondan oshiq o'quvchi 10000 dan ortiq kurslarda ta'lim oladi.³

Hozirgi ICT texnologiyalarni har bir sohaga joriy etish dolzarb bo'lgan bir vaqtda, bu ta'lim platformalaridan universitetlarda foydalanish yaxshi samara beradi. Coursera va EdX darslarini mustaqil o'rganish ma'lum, xo'sh universitet professorlari tarixni o'qitishda qanday foydalanishi mumkin degan savol tug'ilishi tabiiy. Bu vaziyatda professor o'tishi kerak bo'lgan davr va mavzudan kelib chiqqan holda platformadan kursni tanlaydi va ma'ruza jarayonida talabalarga video darslik orqali ham ma'lumot bera oladi. Masalan, Xitoy madaniyati tarixi ma'ruzasida EdX dagi shunga oid kurs videolar orqali mavzuni yanada qiziqroq tashkil etish mumkin.⁴ Buni yana bir foydali jihati talabalar dunyodagi top universitetlarning aynan shu mavzudagi mutaxasis professorlaridan bilim olishga muvaffaq bo'ladilar. Tabiiyki barcha talabalar ingliz tilini yetarli darajada tushunmaydi, shuning uchun professor o'sha video darslarning qisqacha xulosasini o'zbek tilida yozib, talabalarga aytib berishi talab etiladi. Bu usulda darsni tashkil etish tarixni bizda qanday o'tilishi bilan chet el universitetlarida qanday bo'lishini taqqoslashga imkon berib, talabalar

³ <https://www.coursera.org>

⁴ <https://www.edx.org/xseries/hkpolyux-chinese-culture-tradition-transformation-and-interaction?index=product&queryId=09ea1d65a978fd0afe33c3d30778eeee&position=4>



o'rtasida qizg'in bahs-munozara paydo bo'lishiga va darsni interaktiv tashkil etishga yordam beradi. Ma'ruza darsidan so'ng o'qituvchilar seminarlarda talabalarning mavzuni qanchalik o'zlashtirganliklarini tekshirish uchun platformadagi quizlar, yakuniy savollar va testlardan foydalanishlari ham mumkin. Bundan tashqari har bitta kursda shu davr va mavzuga oid materiallar, adabiyotlar ham berilgan bo'ladi va bu o'qituvchilarning shu adabiyotlar orqali o'z ustida ishlashiga, yoki talabalariga mustaqil izlanish sifatida vazifa qilib berilishiga imkon beradi.

Shu bilan birga ma'lum mavzuga oid chuqurlashtirilgan kurslarni talabalarga mustaqil ta'lim sifatida vazifa qilib berish ham mumkin. Bunda topshiriq uchun ma'lum muddat belgilanadi va talabalar kursni chindan ham tugatganliklarini tekshirish uchun kurs oxiridagi quizlar berilib, ularning natijalari hisobga olinadi. Bu platformalarning yana bir afzalligi undagi kurslar modul va kreditlarga bo'lingan bo'lib, agar universitet rahbariyati ruhsat bersa bu kreditlar universitetdagi darslarning umumiy kreditlariga qo'shib hisoblanishi ham mumkin. Bu holatda kursni tamomlaganlik isboti sertifikatlar hisoblanadi va platforma sertifikat berishdan oldin albatta har bir o'quvchini kurs bo'yicha test yoki esse orqali bilimi tekshiradi. Bu talabalarning o'zi qiziqqan davrni o'rganishi orqali universitet belgilagan kreditlarni to'plashiga imkon yaratadi, ammo bir tomondan bu universitetning rozi bo'lish bo'lmasligiga bog'liq.

Xulosa qilib aytganda, bugungi kunda tarix fanlarini o'qitishda raqamli texnologiyalarni jalb qilish muhim hisoblanadi. Coursera va EdX platformalaridagi ko'p kurslar bepul ekanligi, darslarni top universitetlardagi mutaxasislari o'tishi, har bir video darsdan so'ng materiallar va testlar berilishi darsni yanada samarali tashkil etishda muhim hisoblanadi. Hech narsa mukammal bo'lmaganidek, bu platformalardan foydalanishning o'qituvchi faqat video darsliklarga tayanib qolishi kabi salbiy taraflari, yoki universitetlarda texnik jihozlarning yetishmasligi singari to'siqlar bo'lishi mumkin. Ammo, yuqorida keltirilgan afzalliklar bu to'siqlarni bahona qilmay yengib o'tishga va darslarni ushbu platformalardagi kurslar orqali yanada tushunarliroq va qiziqarliroq olib borishga undaydi.



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR VA INTERNET

MANBALARI:

1. O. Malysheva, E. Tokareva, L. Orchakova, Y. Smirnova. The effect of online learning in modern history education. Heliyon 8, e09965. 2022
2. Anja Likovič, Katarina Rojko. E-learning and a case study of Coursera and EdX online platforms. RSC 14(1). 2022. 94-120p.
3. <https://www.coursera.org>
4. <https://www.edx.org/xseries/hkpolyux-chinese-culture-tradition-transformation-and-interaction?index=product&queryId=09ea1d65a978fd0afe33c3d30778eeee&position=4>